



Respublika Ixtisoslashtirilgan
Allergologiya va klinik immunologiya
ilmiy amaliy tibbiyot markazi



Olmazor tumani ichki ishlar
organlarini muvofiqlashtirish
bo'limi



Toshkent Tibbiyot Akademiyasi
Allergologiya, klinik immunologiya va
hamshiralik ishi kafedras

“GENDER ZO‘RAVONLIK”

MAVZUSIDA
MA'NAViy - MA'RIFIY ANJUMAN



Juma
22 Noyabr, 2024



Boshlanishi
11:00



Toshkent sh. Olmazor
tum. Shifokorlar 7.

Dastur



Respublika ixtisoslashtirilgan
Allergologiya va klinik
immunologiya ilmiy amaliy
tibbiyot markazi



Olmazor tumani ichki
ishlar organlarini
muvofiqlashtirish bo'limi



Toshkent Tibbiyot
Akademiyasi Allergologiya,
klinik immunologiya va
hamshirlik ishi kafedrasini

Hurmatli _____ !

Sizni 2024 yil 22 noyabr kuni soat 11:00 da
Toshkent tibbiyot akademiyasining Allergologiya,
klinik immunologiya va hamshirlik ishi kafedrasini,
Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va
klinik immunologiya ilmiy – amaliy tibbiyot
markazi hamda

Toshkent shahar Olmazor tumani ichki ishlar

organlarini muvofiqlashtirish bo'limi bilan
hamkorlikda tashkil etiladigan

“GENDER ZO'RAVONLIK”

mavzusidagi


ma'naviy-ma'rifiy anjumanga taklif qilamiz.

Anjuman respublika ixtisoslashtirilgan
allergologiya va klinik immunologiya ilmiy –
amaliy tibbiyot markazining anjumanlar
o'tkazish zalida bo'lib o'tadi.

Dastur



22-noyabr	11:00	Anjuman qatnashchilarini ro'yxatga olish
	11:15-11:20	Anjumanni ochilishi - Razikova Ilmira Sadullayevna Allergologiya, klinik immunologiya va hamhiralik ishi kafedrasini mudiri, tibbiyot fanlari doktori, professor
	11:20-11:30	Kirish so'zi - Bobomuratov Turdiqul Akramovich. Toshkent tibbiyot akademiyasi Yoshlar masalalari va ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor, tibbiyot fanlari doktori, professor
	11:30-11:40	"Xotin - qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik" - Olmazor tumani ichki ishlar organlarini muvoqlashtirish bo'limining xotin qizlar masalasi bilan ishlash bo'yicha katta inspektor, podpolkovnik
	11:40-11:45	"Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunning mazmun mohiyati - Jo'rayeva Q. X. Olmazor tumani ichki ishlar organlarini muvoqlashtirish bo'limi, podpolkovnik
	11:45-11:55	"Tazyiq va zo'ravonlikning oldini olishda xotin - qizlar va eraklar uchun teng xuquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash borasidagi vazifalar" - Olmazor tumani ichki ishlar organlarini muvoqlashtirish bo'limi, podpolkovnik
	11:55-12:00	"Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishda mamlakatimizda yangicha yondashuv" - Olmazor tumani ichki ishlar organlarini muvoqlashtirish bo'limi, podpolkovnik
	12:00-12:30	Auditoriya bilan ochiq suxbat, savol javoblar va fikr munozaralar



**Республика ихтисолаштирилган аллергология ва клиник иммунология илмий-амалий тиббиёт маркази меҳнат жамоасида хотин-қизлар Маслаҳат кенгашини ташкил этиш юзасидан ўтказилган йиғилиш
БАЁНИ**

2023 йил ... октябрь

Тошкент шаҳри

Раислик қилувчи:

И.С.Разикова - Республика ихтисолаштирилган аллергология ва клиник иммунология илмий-амалий тиббиёт маркази директори, профессор

Қатнашдилар:

Қўмита марказий аппарат ходимлари (рўйхат бўйича)

КУН ТАРТИБИ:

Республика ихтисолаштирилган аллергология ва клиник иммунология илмий-амалий тиббиёт марказида хотин-қизлар Маслаҳат кенгашини тузиш ва унинг фаолиятини йўлга қуйиш тўғрисида

(И.Разикова, Н.Айдарова, Ф.Адилова, Г.Кузиев, Г.Талипова, А.Ишаходжаев, Ж.Хамзаев, П.Зияева.)

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 1 мартдаги «Оила ва хотин-қизларни тизимли қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-87 Фармонида юртимизда хотин-қизларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, уларнинг корхона, ташкилот ва муассасалардаги ҳамда маҳаллалардаги ижтимоий фаоллигини таъминлаш, жамиятдаги ўрнини мустаҳкамлаш борасида вазифалар белгилаб берилди.

Кун тартибидаги масала юзасидан марказ раҳбари сўзга чиқиб, бугунги кунда юртимизда амалга оширилаётган кенг кўламли ислохотлар жараёнида хотин-қизлар салмоқли ўрни ва жамиятимизнинг турли соҳаларида уларнинг фаол иштирок этишлари учун яратилаётган шароитлар тўғрисида тўхталиб ўтди.

Мамлакатимизда аёлга бўлган муносабатда ўзининг тарихий илдизларига эга бўлган аجدодларимиз доимо аёлларни кадрлашга, уларга нисбатан хурматли ва иззатли муносабатда бўлишга даъват этишганлигини ҳам алоҳида таъкидлади.

Шу боис, мулкчилик шаклидан қатъий назар, барча меҳнат жамоаларида Хотин-қизлар масалалари бўйича Маслаҳат кенгаши ташкил этиш юзасидан берилган топшириқда меҳнат жамоасида фаолият юритаётган хотин-қизларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, уларнинг жамиятдаги ролини ошириш мақсад қилинди.

Кун тартибидаги масала юзасидан марказ рахбари И.Разикова сўзга чиқиб, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 1 мартдаги “Оила ва хотин-қизлар давлат кўмитаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги ПҚ-146-сон қарорига кўра марказий аппарат, худудий бошқармалар ва тизим муассасаларида Хотин-қизлар масалалари бўйича Маслаҳат кенгашини тузиш ва уларнинг самарали фаолиятини йўлга қуйиш, ташкилотнинг Низомини ва иш режасини қабул қилиш ва уни худудларга намуна учун юбориш тўғрисида алоҳида тўхталиб ўтди.

Шу билан бирга, И.Разикова марказда фаолият юритаётган барча хотин-қизларга хавфсиз меҳнат ва дам олиш шароитлари яратиш, уларнинг меҳнатига муносиб ҳақ тўлаш ва қўшимча имтиёзлар бериш, аёлларнинг ҳуқуқий маданиятларини ошириш, маданий-маърифий ва спорт йўналишидаги тадбирларда иштирок этиш имкониятларининг кенгайтириш борасида бошланғич ташкилотларининг ўрни тўғрисида фикр билдирди.

И.Разикова ўз сўзида хизматнинг хотин-қизлар масалалари бўйича хотин-қизлар кўмитаси тизимида кўп йиллар давомида ишлаб келган, зарур назарий билим ва амалий кўникмаларга эга мутахассисни сайлаш ва Маслаҳат кенгаши аъзоларини ҳам ҳар томонлама намуна бўла олган, аёллар муаммоларига бефарқ бўлмаган мутахассислар орасидан сайлаш фикрини билдирди.

Юқоридагиларга кўра, мазкур лавозимга ўзига юкланган вазифаларни юқори даражада бажаришга қодир, кўп йиллик меҳнат тажрибасига эга ва жамоат ишларида фаол ва намуна бўлган илмий ишлар бўйича директор ўринбосари Н.Айдарованинг номзодини тавсия этди.

Шунингдек, кенгаш таркибига малакали мутахассислардан иборат номзодлар тавсия этилди.

Йиғилишда таклиф этилган номзодлар бўйича директор ўринбосари Ғ.Қўзиев, бош хисобчи А.Бозорбоев, кадрлар бўлими бошлиғи Ф.Адиловалар ижобий фикрлар билдирдилар ва номзодлар тўғрисидаги таклиф бир овоздан маъқулланди.

Юқоридагиларни инобатга олиб, йиғилиш

- қарор қилади:

1. Барча меҳнат жамоаларида Хотин-қизлар масалалари бўйича Маслаҳат кенгашларини ташкил этиш тўғрисидаги топшириқ маълумот ва ижро учун қабул қилинсин.

2. Республика ихтисолаштирилган аллергология ва клиник иммунология илмий-амалий тиббиёт марказида Хотин-қизлар Маслаҳат кенгаши ташкил этилсин.

3. Республика ихтисолаштирилган аллергология ва клиник иммунология илмий-амалий тиббиёт марказининг Маслаҳат кенгаши раиси этиб **Н.Айдарова** сайлангани маълумот учун қабул қилинсин.

4. Хотин қизлар масалалари бўйича Маслаҳат кенгаши таркиби **иловага мувофиқ тасдиқлансин.**

5. **Н.Айдарова** Маслаҳат кенгаши аҳолари билан Кенгаш туғрисидаги **Низом** ва унинг **Иш режасини** ишлаб чиқсин ва тасдиқлатсин, унинг самарали ижросини таъминласин.

6. **Кадрлар бўлими (Ф.Адилова)** бир hafta муддатда тизим муассасаларида бошланғич ташкилотларининг тузилишини алоҳида назоратга олсин.

7. Йиғилиш Баёни ижросини назорат қилишни ўз зиммамда қолдираман.

Йиғилиш котиби

В.Байбекова